

**«TENGE BANK» ATB MASOFAVIY BANK XIZMATI ORQALI
ONLAYN MIKROQARZINI BERISH TO'G'RSIDA
OMMAVIY OFERTA**

1. ATAMALAR VA TA'RIFLAR

Mijozni verifikatsiyalash – Bank tomonidan olingan va mavjud bo'lgan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarining dolzarbligi, to'g'riligi va to'liqligini tekshirish.

Mikroqarzni berish sanasi - Bank tomonidan Qarz oluvchining talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga/bank kartasiga, shu jumladan virtual kartasiga/elektron hamyoniga pul mablag'lari o'tkazilgan sana

Qarz oluvchi/Mijoz - tasdiqlangan daromadga ega bo'lgan va Mikroqarz mahsuloti shartlari bo'yicha barcha talablarni qondiradigan, shuningdek Bank bilan tuzilgan Mikroqarz berish to'g'risidagi ushbu Shartnoma va Ommaviy oferta doirasida Mikroqarz olgan jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasida doimiy yashovchi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari/rezidentlari).

Mikroqarzning individual shartlari - Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarz olish vaqtida Individual shartlarni va ushbu Ommaviy ofertani MBX orqali aktseptlash yo'li bilan ko'rsatiladigan va tasdiqlangan, Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblangan mumkin bo'lgan moliyalashtirish miqdori doirasidagi Mijozga mikroqarz berishning aniq shartlari (summasi, muddati, foiz stavkasi va boshqalar).

Kredit arizasi - bu Mijoz (potensial qarz oluvchi) tomonidan MBX orqali Bankka yuboriladigan, unga onlayn mikroqarz (keying o'rinlarda “Mikroqarz” deb ataladi) berish ehtimolini baholash uchun va ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlar asosida so'ralgan mikroqarz to'g'risidagi umumiy axborotlarni o'z ichiga olgan hujjatdir (masofaviy bank xizmatida shakllantiriladigan - MBX).

Mikroqarz / onlayn Mikroqarz - ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan shartlar asosida MBX tizimlaridan foydalangan holda pul mablag'larini o'tkazish yo'li bilan Bank tomonidan Qarz oluvchiga muddatlilik, qaytarilishlik, ta'minlanganlik va to'lovlilik shartlari asosida beriladigan pul mablag'lari.

Elektron hamyon - Mijoz MBX tizimlari orqali tasarruf etadigan Bankda ochilgan hisobvara.

Mikroqarz bo'yicha ta'minot - mikroqarz summasining kamida 125 foizi miqdorida kreditni so'ndirmaslik tavakkalchiligini sug'urtalash polisi.

To'lov majburiyatlari - Qarz oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni ushbu Shartnomada ko'rsatilgan miqdorda va muddatlarda, u bo'yicha foizlarni va boshqa to'lovlarni so'ndirish majburiyati (garovni rasmiylashtirish bo'yicha xarajatlar).

Masofaviy bank xizmatlari tizimlari (keyingi o'rinlarda matnda “MBX” deb ataladi) - Bank xizmatlaridan masofaviy foydalanish imkoniyatini beruvchi dasturiy–texnik vositalar majmuasi, shu jumladan Bankning mobil ilovasi.

2. ASOSIY QOIDALAR

2.1. Ushbu Ommaviy oferta - bu Bank Mijozlarining noma'lum soniga yuborilgan "Tenge Bank" ATBning (keying o'rinlarda “Bank” deb ataladi) MBX orqali Ommaviy ofertaning ushbu umumiy shartlari va Mikroqarzning individual shartlari asosida mikroqarz berish to'g'risidagi shartnomani (keying o'rinlarda “Shartnoma” deb ataladi) tuzish bo'yicha rasmiy taklifi hisoblanadi.

2.2. Mikroqarz berish to'g'risidagi shartnoma O'zbekiston Respublikasi fuqarolik kodeksining 367-moddasi va 369-moddasi 2-qismiga, Universal shartnomaga muvofiq tuziladi va Mijoz ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab kuchga kiradi va Mijoz tomonidan ushbu Ommaviy ofertani hech qanday istisno yoki cheklolrsiz

so'zsiz aktseptini anglatadi.

2.3. Ushbu Ommaviy oferta shartlariga muvofiq Mikroqarz olishni istagan va aniq talablarga muvofiq bo'lishi kerak bo'lgan Mijozlar, mikroqarz summasining miqdori, muddatlari, shuningdek boshqa shartlar jamoat joyiga tegishli axborotlarni joylashtirish orqali Mijozlarga etkaziladi (Bankning Internet tarmog'idagi rasmiy saytida: www.tengebank.uz, MBX servislarida, Bankning Aloqa-Markazi orqali, ommaviy axborot vositalarida va boshqalarda).

2.4. Mikroqarz shartlariga rozi bo'lgan holda va axborot uzatish shartlari bo'yicha ofertani qabul qilish va Kredit arizasini yo'naltirishda, Mijoz ushbu Ommaviy ofertani MBX vositalaridan foydalangan holda yoki Bank tomonidan belgilangan boshqa usullar bilan onlayn ravishda aktseptlaydi. Ushbu aktsept Bank uchun Mijozning kredit arizasini potentsial Qarz oluvchi sifatida oldindan ko'rib chiqish uchun asos hisoblanadi. Agar Bank Mijozning arizasini ma'qullasa, Bank Mijozga Mikroqarzni individual shartlarini taqdim etadi. Mijoz tomonidan Mikroqarzni individual shartlari qabul qilingan (aktsept) taqdirda, ushbu Ommaviy oferta va Mikroqarzni individual shartlarida nazarda tutilgan shartlar bo'yicha Mikroqarzni berish to'g'risidagi shartnoma tuzilgan hisoblanadi.

Bunda, Mijoz/Qarz oluvchi Bankning operatsion kuni oxirida va/yoki tashqi axborot tizimlariga kirish huquqi bolmaganligi sababli, shuningdek Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablarga ko'ra shartnomani aktseptlagan taqdirda, shartnoma Bankning keyingi birinchi operatsion kunida va/yoki tashqi axborot tizimlariga kirish imkoni mavjud bo'lganda, shuningdek, Bankka bog'liq bo'lmagan boshqa sabablar bartaraf etilgandan keyin, tuzilgan deb hisoblanadi.

2.5. Mikroqarzni individual shartlari Mijoz/Qarz oluvchi tomonidan har bir mikroqarzni olishdan oldin alohida belgilanadi va Bankning mobil ilovasiga o'tkaziladi. Qarz oluvchi SMS-xabarni yoki Bank tomonidan taklif qilingan boshqa usulni tasdiqlash orqali Mikroqarzni individual shartlarini qabul qiladi va rozi bo'ladi. Qarz oluvchi tomonidan Ommaviy ofertaning ushbu shartlari aktseptlangan va Qarz oluvchi tomonidan Mikroqarzni individual shartlari qabul qilingan taqdirda, ushbu Ommaviy ofertada va Mikroqarzni individual shartlarida nazarda tutilgan shartlarda Mikroqarzni berish to'g'risidagi shartnoma (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb ataladi) tuzilgan hisoblanadi va Bank va Mijoz/Qarz oluvchi o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

2.6. Mijozning to'lovga qobiliyatligini va Mijozning boshqa ma'lumotlarini baholash amalga oshiriladigan Bankning skoring modeli tijorat siri ekanligiga va maxfiy deb hisoblanishiga va Bank quyidagi hollarda, hech qanday sabablarni ko'rsatmagan holda, unga Mikroqarzni berishni rad etishga huqli ekanligiga Mijoz rozi:

- Mijoz va u taqdim etgan ma'lumotlar tahlil qilishning barcha tegishli bosqichlarini muvaffaqiyatli o'tmaganligi va/yoki;
- muammoli kreditlar/qarzlarni, ular bo'yicha joriy muddati o'tgan qarzdorlik mavjud bo'lsa;
- Mikroqarzni olishning maqsadi jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va/yoki terrorizmni moliyalashtirish va/yoki ommaviy qirg'in qurollarini tarqatishni moliyalashtirish ekanligiga shubhalar mavjud bo'lsa;
- Kredit arisasi/ariza beruvchi shartlarining Bank kredit siyosati/tavakkalchilik strategiyasi talablariga muvofiq kelmasligi bilan bog'liq bo'lgan boshqa holatlarda;
- Amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

Mijozni ushbu Ommaviy oferta va Tariflar (shu jumladan, Bank tomonidan vaqti-vaqti bilan kiritiladigan o'zgartirishlar va/yoki qo'shimchalar bilan) bilan tanishtirish maqsadida Bank ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni Bank saytida e'lon qiladi. Qo'shimcha ravishda, Bank Mijozni boshqa usullar bilan xabardor qilishi mumkin, bu esa Mijozlarga axborot olish va u Bankdan kelganligini aniqlash imkonini beradi. Ko'rsatilgan axborotlarning e'lon qilingan sanasi uning Bank saytida birinchi joylashtirilgan sanasi hisoblanadi.

3. SHARTNOMA PREDMETI

3.1. Bank Mijozga kredit arizasida Mijoz tomonidan ko'rsatilgan miqdorda, lekin Bank tomonidan Mijoz uchun hisoblab chiqilgan mumkin bo'lgan moliyalashtirish summasidan ko'p

bo'lmagan miqdorda Mikroqarz taqdim etadi, Mijoz esa ushbu Ommaviy oferta shartlariga va Mikroqarzning individual shartlariga muvofiq olingan Mikroqarz summasini Bankka qaytarish va undan foydalanganlik uchun foizlarni to'lash majburiyatini oladi.

3.2. Ta'minotga qo'yiladigan talablar - Bankning ixtiyoriga ko'ra, ta'minotsiz yoxud kreditni qaytarmaslik tavakkalchiligini sug'urtalash polisi ta'minoti ostida.

3.3. So'ndirish tartibi - har bir Mikroqarz bo'yicha Mijozning MBX tizimlarida mavjud bo'lgan to'lovlar jadvaliga muvofiq har oy.

4. SSUDA HISOBVARAG'INI OCHISH

4.1. Mazkur Ommaviy ofertaga muvofiq, Bank Mijozga milliy valyutada – o'zbek so'mida ssuda (lar) hisobvarag'ini(larini) ochadi.

4.2. Hisobvara qo'rami Bank tomonidan bir tomonlama belgilanadi va MBXga axborotlarni joylashtirish orqali Mijozga xabar qilinadi.

5. MIKROQARZNI BERISH VA SO'NDIRISH TARTIBI

5.1. Mikroqarz Mijozga ushbu Ommaviy ofertada belgilangan shartlarda va tartibda naqd pulsiz shaklda talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga yoki bank kartasiga, shu jumladan Mijozning virtual kartasi/elektron hamyoniga o'tkazish yo'li bilan beriladi.

5.2. Mikroqarz ni olish uchun Mijoz MBX tizimining interfeysida ushbu Ommaviy oferta bilan tanishib chiqishi va aktseptlashi (qabul qilishi) va Kredit arizasini taqdim etish orqali Mikroqarzni berish imkoniyatini so'rashi kerak.

5.3. Kredit arizasiga ishlov berilgandan so'ng, Bank MBX tizimining interfeysida Mijozga ushbu Ommaviy oferta shartlarida va Mikroqarzning individual shartlarini shakllantirish orqali Bank tomonidan ma'qullangan moliyalashtirish summasini yoki muvaffaqiyatsiz verifikatsiya yoki Mijozning kreditga layoqatliligining etarli emasligi sababli Mikroqarzni berishning imkoniyati yo'qligi to'g'risida xabar beradi.

5.4. Mijoz ushbu Ommaviy oferta va Mikroqarzning individual shartlarini aktseptlagan holda, Mikroqarzni ko'rib chiqish, berish va so'ndirish jarayonlari bilan bog'liq maqsadlarda Bankka O'zbekiston Respublikasining “Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida”gi Qonuni talablariga muvofiq rasmiy manbalardan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini kerakli hajmda so'rash, qabul qilish, ishlov berish va o'tkazishga rozilik va vakolat beradi.

5.5. Bank tomonidan ma'qullangan Mijozni moliyalashtirish summasi, Mijozning kreditga layoqatliligini baholash orqali Bankda mavjud bo'lgan Mijoz to'g'risidagi axborotlar asosida aniqlanadi. Mijozning kreditga layoqatliligini baholash metodikasi Bankning tijorat siri va maxfiy hisoblanadi.

5.6. Mijoz ushbu Ommaviy oferta shartlarida so'ndirish oyi sanasini ko'rsatgan holda Bank tomonidan taklif qilingan mumkin bo'lgan moliyalashtirish summasidan oshmaydigan summada kredit arizasini taqdim etishga yoki Mikroqarzni olishni rad etishga haqli.

5.7. Mijozning Kredit arisasi Mikroqarzning summasi, muddati, va so'ndirish oyining sanasini o'z ichiga oladi va Mijoz tomonidan aktseptlangan ushbu Ommaviy ofertaning ajralmas qismi hisoblanadi.

5.8. Kredit arizasini taqdim etish va Mikroqarzning individual shartlarini aktseptlash Mijozning Mikroqarzning individual shartlarida ko'rsatilgan Mikroqarzni olish uchun roziligini tasdiqlaydi, shundan so'ng Mikroqarzning individual shartlari va Ommaviy oferta Bank va Mijoz o'rtasida kelishilgan hisoblanadi.

5.9. Bankning Mikroqarzni berish bo'yicha majburiyati Mikroqarz berilgan kundan boshlab bajarilgan hisoblanadi.

5.10. Taqdim etilgan summa, muddat, foiz stavkasi, Mikroqarzni so'ndirish jadvali Mikroqarzning individual shartlari bilan belgilanadi.

5.11. Agar to'lov sanasi bankning ishlamaydigan kuniga to'g'ri kelsa, to'lov sanasi keyingi eng yaqin bank ish kuni hisoblanadi. Bunda, to'lov summasi o'zgaradi (dam olish kunlari/bayram kunlari uchun foizlar to'lov summasiga kiritiladi va keyingi to'lovdan chiqarib tashlanadi)

- 5.12.** Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish (qaytarish) Mijoz tomonidan Mikroqarznig individual shartlariga muvofiq mikroqarz valyutasida amalga oshiriladi.
- 5.13.** Mijoz qabul qilingan onlayn mikroqarzni MBX tizimida ko'rsatilgan onlayn Mikroqarzni to'lash jadvalida ko'rsatilgan muddatlarga muvofiq so'ndirish majburiyatini oladi.
- 5.14.** Mijozning Mikroqarzni so'ndirish uchun tushadigan mablag'lar Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni, hisoblangan foizlar bo'yicha qarzdorlikni, neustoyka, vositachilik haqi va boshqalarni so'ndirish uchun yo'naltiriladi. Ushbu to'lov sanasida Mijozning majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmagan Bank foydasiga kelib tushgan to'lov, ushbu Ommaviy oferta bo'yicha Mijozning Bank oldidagi majburiyatlarini to'lash uchun quyidagi tartibda yo'naltiriladi:
- muddati o'tgan asosiy qarz va foizlar bo'yicha qarzdorlikni mutanosib ravishda so'ndirish uchun;
 - joriy to'lov va asosiy qarz bo'yicha hisoblangan foizlar;
 - neustoyka (penyalar/ vositachilik haqlari), jarimalar summasi;
- 5.15.** Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni qisman muddatidan oldin so'ndirish, Mikroqarznig individual shartlari bo'yicha Qarz oluvchining to'lovlarining miqdori, hajmini aniqlash tartibini va davriyligini (muddatlarini) o'zgartirishga olib kelmaydi.
- 5.16.** Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni qisman muddatidan oldin to'lash holatida, asosiy qarz qoldig'i summasi qisman muddatidan oldin to'langan summani chegirib tashlagan holda kamayadi, bunda Oylik to'lov asosiy qarzni qisman to'lash summasiga kamayadi, foizlar asosiy qarznig haqiqiy qoldig'iga hisoblab chiqiladi va kredit berilgan muddat esa o'zgarmaydi.
- 5.17.** Muddatli qarzdorlik (so'ndirish muddati yetib kelmagan qarzdorlik/mikroqarzni muddatidan oldin so'ndirish) Qarz oluvchining ko'rsatmalariga muvofiq so'ndiriladi.
- 5.18.** Asosiy qarzni so'ndirish ushbu Shartnoma bo'yicha taqdim etilgan Mikroqarznig hisobi yuritiladigan ssuda hisobvarag'ida, hisoblangan foizlar esa mikroqarz bo'yicha hisoblangan foizlarni hisobga olish hisobvarag'ida amalga oshiriladi. Asosiy qarzni va unga hisoblangan foizlarni so'ndirish sanasi ko'rsatilgan hisobvaraqlarga mablag'lar tushgan kun hisoblanadi.
- 5.19.** Asosiy qarzni va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirish Bank tomonidan Mijozning arizalarini, Bank farmoyishlarini bajarish va/yoki Bank tomonidan Mijozning talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'idan mablag'larni memorial orderlar bilan mustaqil ravishda aktseptsiz hisobdan chiqarish yoki Bank tomonidan Qarz oluvchining barcha hisobvaraqlaridan tegishli summani hisobdan chiqarish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda, kredit bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sud qarori chiqarilganda, foizlarni hisoblash va kreditning muddati o'tgan qismi uchun foizlarni hisoblash to'xtatiladi.
- 5.20.** Ushbu Ommaviy oferta bo'yicha Mikroqarzni, foizlarni va boshqa to'lovlarni to'lash, mikroqarzni/karta hisobvarag'ini (SKH) so'ndirish uchun Mijoz tomonidan o'z talab qilib olinguncha/maxsus/jamg'arib boriladigan hisobvarag'ni O'zbekiston Respublikasining boshqa banklaridan pul mablag'larini o'tkazish yoxud bank Sheriklarining to'lov terminalari orqali yoxud bankning MBX yordamida toldirish orqali amalga oshirishi mumkin. Mikroqarz bo'yicha to'lovni amalga oshirish uchun Mijoz yoki uning ishonchli vakili mobil ilovada yoki bank Sheriklarining to'lov terminalida rekvizitlarni to'ldirish vaqtida tegishli maydonga "kreditning ID"sini kiritishi kerak, bu Mikroqarzni rasmiylashtirilishida beriladi, Qarz oluvchi "kreditning ID"sini Bankning mobil ilovasi yoki MBX tizimi orqali bilib olishi mumkin.
- 5.21.** MBX tizimida onlayn mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni jadvalga muvofiq yoki muddatidan oldin so'ndirish imkoniyati beriladi. Mijoz MBX tizimining interfeysida "Jadval bo'yicha so'ndirish" opsiyasini tanlaganida, pul mablag'lari jamg'arma hisobvarag'iga o'tkaziladi va to'lov muddati kelishi bilan jamg'arma hisobvarag'ida mavjud bo'lgan summa doirasida onlayn mikroqarzni so'ndirish uchun yo'naltiriladi. Bunday holda, jadval bo'yicha so'ndirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - asosiy qarz uchun hisoblangan foizlar; - asosiy qarz summasi. "Muddatidan oldin so'ndirish" opsiyasini tanlashda pul mablag'lari birinchi navbatda to'lov muddati kelmagan haqiqiy hisoblangan foizlarga, to'lovning qolgan qismi esa onlayn mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni so'ndirish uchun yo'naltiriladi. Mijozning onlayn mikroqarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmagan taqdirda, "Muddatidan oldin so'ndirish"

optionsiga kirish huquqi bo`ladi. MBX tizimi orqali onlayn mikroqarz so`ndirilganda hisoblangan foizlar jadvalga muvofiq to`lov muddati kelganda so`ndirilishi lozim.

5.22. Mijoz dastlabki arizani berish vaqtida Mijoz tomonidan ko`rsatilgan bank kartalaridan, Mijozning mobil hamyonidan va Bankda ochilgan har qanday Mijozning hisobvaraqlaridan Bank tomonidan onlayn mikroqarz bo`yicha to`lovlarni shubhasiz hisobdan chiqarishga rozilik beradi

5.23. Onlayn mikroqarz bo`yicha muddati o'tgan qarzdorlikni undirish, Bank tomonidan asosiy qarz va foizlar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik summasini mobil hamyondan, bank kartalaridan va Bankda ochilgan har qanday hisobvaraqlardan shubhasiz tartibda hisobdan chiqarish yo'li bilan quyidagi tartibda amalga oshiriladi: - muddati o'tgan asosiy qarz va muddati o'tgan foizlarni mutanosib ravishda so`ndirish; - muddati o'tgan asosiy qarzga hisoblangan foizlar;

6. MIKROQARZDAN FOYDALANGANLIK UCHUN TO`LOV

6.1. Bank Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzning haqiqiy qoldig'iga Mikroqarzning individual shartlarida ko`rsatilgan yillik foiz stavkasidan kelib chiqib foizlarni hisoblablaydi.

6.2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining qayta moliyalash stavkasi o'zgarganda yoki kapital bozoridagi resurslar uchun to'lovlar oshirilgan/kamaytirilgan taqdirda, Mikroqarzning individual shartlarida ko`rsatilgan Mikroqarzdand foydalanganlik uchun hisoblanadigan foizlar miqdori Tomonlar tarafidan o'zaro kelishish bo`yicha ofertani (qo'shimcha kelishuv) MBX yo'li bilan yoki yozma ravishda akseptlash bilan tasdiqlab, qayta ko`rib chiqilishi mumkin.

6.3. Mikroqarz bo'yicha asosiy qarz qoldig'i bo'yicha foizlar O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq har kuni ish kunining oxiriga kelib yiliga 365 kun va har oyda amaldagi kunlar soniga qarab hisoblab chiqiladi. Hisoblash kredit hisobvarag'ida qarzdorlik vujudga kelgan kundan boshlanadi.

6.4. Mijoz Mikroqarzdand foydalanganlik uchun Mikroqarzning individual shartlariga muvofiq hisoblangan foizlarni to'lov sanasida Bankka to'laydi.

6.5. Mikroqarznning (KTQ) to`liq qiymati O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq hisoblanadi. KTQ tarkibiy qismlari haqida batafsil ma'lumotlar Mikroqarzning individual shartlarida keltirilgan.

6.6. Shartnoma shartlariga Mijoz tomonidan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik tavakkalchilini keltirib chiqarmaydigan o'zgartirishlar kiritish (foiz stavkasining o`sishi, shaxsga doir ma'lumotlar qismiga o'zgartirishlar kiritish va h.k.), shuningdek, Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni qisman muddatidan oldin so`ndirilganligi munosabati bilan, Bank oylik to'lov miqdorini qayta hisoblash qismida so`ndirish jadvaliga o'zgartirish kiritish huquqiga ega bo`lib, Shartnoma shartlariga o'zgartirishlar kiritilganlik uchun bir martalik vositachilik haqi undirilmasdan amalga oshiriladi.

6.7. Qarz oluvchi tomonidan majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmaslik tavakkalchiligini keltirib chiqarmaydigan Shartnoma shartlarining ta'minoti qismiga o'zgartirishlar kiritish (qo'shimcha ta'minot taqdim etish, texnik pasportni, kadastr hujjatlarini, garov predmetining joylashgan joyini almashtirish paytida, sug'urta muddatini uzaytirish va boshqalarda garov bo'yicha ma'lumotlar qismiga shaxsga doir ma'lumotlar qismlariga o'zgartirishlar kiritish), Shartnoma shartlarining ta'minoti qismiga o'zgartirishlar kiritilganlik uchun bir martalik vositachilik haqi undirilmasdan amalga oshiriladi.

7. MIKROQARZNING QAYTARILISHINI TA`MINLASH

7.1. Ushbu Ommaviy oferta bo'yicha taqdim etiladigan Mikroqarz quyidagi ta`minot turlaridan biri bilan ta'minlanishi mumkin:

7.1.1. Mikroqarzni so`ndirmaslik tavakkalchiligi Sug'urta polisi bilan. Bank Sug'urtalovchi bilan kreditlashning butun muddati uchun mikroqarzni so`ndirmaslik tavakkalchiligini sug'urtalash shartnomasini tuzadi (keying o`rinlarda "ta'minot" deb ataladi). Mikroqarzni so`ndirmaslik tavakkalchiligi sug'urta polisining aniq shartlari tegishli sug'urta shartnomasida (yoki

sug'urtalash kelishuvida) nazarda tutilgan bo'lib, uning shartlari Bankni qoniqtiradi. Ta'minot Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bankka aloqador bo'lgan shaxslar uchun - Mikroqarz summasining kamida 130 foizini qoplaydigan miqdorda qabul qilinadi.

Agar kredit mahsuloti shartlarida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, Mikroqarzni so'ndirmaslik tavakkalchiligi (sug'urta mukofoti) Sug'urta polisini rasmiylashtirish bilan bog'liq barcha xarajatlarni Bank o'z zimmasiga oladi.

7.1.2. Mijoz/uchinchi shaxslarning alohida depozit hisobvarag'iga joylashtirilgan pul mablag'lari garovi bilan. Milliy valyutadagi pul mablag'lari garovga qo'yilganda mikroqarz summasining 100 foizini qoplaydigan miqdorda va chet el valyutasidagi pul mablag'lari garovga qo'yilganda mikroqarz Limitining kamida 110 foizini qoplaydigan miqdorda ta'minot qabul qilinadi. Ushbu talab Bankka aloqador bo'lgan shaxslar uchun ham qo'llaniladi.

7.1.3. Uchinchi shaxsning kafilligi Mikroqarz summasining 125 foizini qoplaydigan miqdorda, Bankka aloqador bo'lgan shaxslar uchun - Mikroqarz summasining kamida 130 foizini qoplaydigan miqdorda qabul qilinadi.

7.1.4. Mijozning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlari va omonatlariga tushadigan va/yoki joylashtirilgan pul mablag'larini, shu jumladan ijaraga beriladigan mol-mulk daromadlaridan, omonatlar bo'yicha foizlardan, ish haqidan va boshqa daromadlardan Mikroqarz summasining kamida 125 foizini qoplaydigan miqdorda tushadigan pul mablag'larini talab qilish huquqi bilan.

7.1.5. Transport vositalarining garovi bilan. Garovning aniq shartlari notarial rasmiylashtiriladigan garov shartnomasida belgilanadi. Qarz oluvchi Bank tomonidan ma'qullangan sug'urta kompaniyasi orqali "Garov predmeti"ni sug'urtalash va mikroqarz shartnomasining butun amal qilish davri uchun sug'urta qilishni ta'minlash majburiyatini oladi. Sug'urta hodisasi yuz berganda naf oluvchi Bank hisoblanadi. Tegishli ravishda rasmiylashtirilgan sug'urta shartnomasi, sug'urta polisi va Garov predmeti bo'yicha notarial rasmiylashtirilgan garov shartnomasi mikrorazq taqdim etilgunga qadar Qarz oluvchi tomonidan Bankka taqdim etilishi kerak.

7.2. Agar Mijoz asosiy qarzni, foizlarni so'ndirish bo'yicha biron-bir to'lovni amalga oshira olmaydigan va/yoki Mikroqarzning individual shartlaridan kelib chiqadigan belgilangan sanaga qadar boshqa to'lovlarni amalga oshira olmaydigan vaziyat yuzaga kelsa va/yoki shartnoma bo'yicha boshqa majburiyatlarni buzsa, Bank oladi va Mijoz ushbu Ommaviy oferta va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq undiruvni ta'minotga va/yoki uning(ularning) qismi (lari)ga qaratish va/yoki Mijozning qarzdorligini Sug'urtalovchidan undirib olish bo'yicha so'zsiz va chaqirib olinmaydigan huquqini Bankka taqdim etadi.

8. SHAXSGA DOIR MA'LUMOTLARGA ISHLOV BERISH

8.1. Shartnoma tuzish, shuningdek Bankka kredit arizasini yuborish orqali Mijoz Bankka Mijoz tomonidan taqdim etilgan shaxsga doir ma'lumotlarni yig'ish, yozish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, aniqlashtirish (yangilash, o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (taqdim etish, kirish, shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishni uchinchi shaxslarga topshirishda), egasizlantirish, blokirovka qilish, chiqarib tashlash, yo'q qilishni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda va/yoki foydalanmasdan qog'oz va/yoki elektron tashuvchilardagi Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish huquqini (roziligini) beradi.

8.2. Ushbu Shartnomaning maqsadlari uchun Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari deganda Mijoz tomonidan Bankka yoki uning roziligi bilan uchinchi shaxs tomonidan bevosita yoki bilvosita uning yordami bilan aniqlangan yoki aniqlanadigan Mijozga tegishli bo'lgan axborot, shu jumladan quyidagi ma'lumotlar tushuniladi: familiyasi, ismi, otasining ismi; tug'ilgan sanasi, oyi va yili; jinsi; aloqa ma'lumotlari (telefon raqamlari, elektron pochta manzillari); shaxsni tasdiqlovchi hujjat ma'lumotlari; yashash joyi va/yoki borgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar, ma'lumoti, oilaviy ahvol, bolalar soni, bandlik va faoliyat sohasi to'g'risidagi ma'lumotlar, ish beruvchi to'g'risidagi ma'lumotlar, o'rtacha oylik daromad va oylik xarajatlar va boshqalar.

8.3. Mijozning yuqorida ko'rsatib o'tilgan shaxsga doir ma'lumotlariga quyidagi maqsadlarda

ishlov berish: Bank tomonidan Mijoz bilan shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish, uni tuzish masalasi bo'yicha ijobiy yoki salbiy qaror, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga istisno tariqasida avtomatlashtirilgan tarzda ishlov berish yo'li bilan Bank tomonidan qabul qilinishi mumkin; Mijoz tomonidan ko'rsatilgan ma'lumotlarning ishonchliligini tekshirish; Shartnomani bajarish va bekor qilish; Shartnoma bo'yicha qarzdorlikni talab qilish (so'ndirish, undirish); Mijozning to'lovga qobiliyatligini baholash; uning ish joyini, yashash joyining haqiqiy manzilini, telefon raqamini va Mijozdan olingan boshqa ma'lumotlarni qidirish va tekshirish; Mijozning Bank mahsulotlariga qiziqishini aniqlash; Mijozni marketing segmentlariga tayinlash; Mijozga Bankning boshqa xizmatlari va mahsulotlarini ilgari surish va ko'rsatish (taqdim etish) (shu jumladan, Bank tomonidan taqdim etiladigan boshqa xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq boshqa shartnomalar tuzish imkoniyatini ko'rib chiqish).

8.4. Shartnoma tuzish orqali Mijoz Bankdan maxsus shartlarda bank mahsulotlarining shaxsiy takliflarini olish uchun istalgan vaqtda o'zining kredit tarixi to'g'risidagi ma'lumotlarini kredit tarixi byurosidan so'rab olish bo'yicha Bankka topshiriq beradi.

9. TOMONLARNING HUQUQLARI VA MAJBURIYATLARI

Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

9.1. Jarima sanksiyalarini undirmagan holda, ushbu Shartnomada belgilangan muddatlardan oldin istalgan vaqtda Mikroqarzni so'ndirish.

9.2. Shartnoma tuzilgandan keyin, pul mablag'lari olingunga qadar bo'lgan davrda, Mikroqarzni olishdan bepul asosda voz kechish.

9.3. Garovda turgan o'zining depozitidagi (omonatidagi, agar mavjud bo'lsa) mablag'larini, depozitning (omonatning) amal qilish muddatidan qat'i nazar, Mikroqarzni qaytarish uchun yo'naltirish. Bunda, Mijoz Mikroqarz bo'yicha garovda turgan o'zining muddatli depozitidagi (omonatidagi) mablag'larini shartnomada ko'rsatilgan depozit (omonat) muddati tugagunga qadar Mikroqarzni qaytarish uchun yo'naltirmoqchi bo'lsa, u bu haqda Bankni depozitni (omonatni) qaytarishni mo'ljallayotgan sanadan kamida bir oy oldin xabardor qilishi kerak.

9.4. Shartnoma amal qilish muddati davomida quyidagi axborotlarni bir ish kuni ichida yozma shaklda oyda bir marta bepul olish:

- Mikroqarz bo'yicha to'langan pul mablag'lari summasi to'g'risida;
- asosiy summa bo'yicha qarz qoldig'i to'g'risida;
- navbatdagi to'lovlarning miqdori, tarkibi va muddatlari to'g'risida (to'lovlar jadvali);
- muddati o'tgan qarzdorlikning miqdori va tarkibi to'g'risida;
- kelib tushayotgan pul mablag'larini Mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni so'ndirishga yo'naltirilishi to'g'risida.

Mijoz ushbu turdagi hujjatlarni elektron shaklda MBX vositalari yordamida almashish shartini qabul qiladi, ular qog'ozdagi hujjatga tenglashtiriladi va u bilan bir xil yuridik kuchga ega bo'ladi.

9.5. Shartnoma tuzilgan kundan boshlab 14 (o'n to'rt) kun ichida Mikroqarz summasini ishlatish. Ushbu davrdan keyin Mikroqarzning foydalanilmagan qismi o'zlashtirilmaydi.

9.6. Universal shartnoma va Amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquqlar.

Mijoz quyidagilarga majbur:

9.7. Qarzdorlikni so'ndirish va shartnomada nazarda tutilgan barcha to'lovlarni Shartnomaga muvofiq to'liq hajmda, shu jumladan bunday da'volarni qondirish bo'yicha yakuniy qaror qabul qilingunga qadar amalga oshirilgan operatsiyalar bo'yicha da'volar taqdim etilgan taqdirda to'lash.

9.8. Bankka ushbu Shartnomada va Bankning amaldagi Tariflarida nazarda tutilgan to'lovlarni to'lash.

9.9. Hisobvaraqda to'lov sanasidan kechiktirmay Mikroqarz bo'yicha to'liv summasini ta'minlash. To'lov sanasida (shu jumladan) Hisobvaraqda Mikroqarz bo'yicha Bank tomonidan hisobdan chiqarish uchun etarli mablag' bo'lmasa, muddati o'tgan qarzdorlik hosil bo'ladi, bu

haqdagi ma'lumot Bank tomonidan kredit tarixi byurosiga taqdim etiladi, bu esa Mijozning kredit tarixiga salbiy ta'sir qiladi.

9.10. Bank Kartasini (unga mikroqarz berilgan) va/yoki MBXga ulangan mobil telefon raqamini va/yoki Abonent qurilmasini uchinchi shaxslarga foydalanish uchun bermaslik. Mijoz ushbu bandni buzgan taqdirda, Mijoz barcha harakatlar va operatsiyalar uchun javobgar bo'ladi.

9.11. Bankning so'roviga binoan, zarur hollarda, Bankning tegishli so'rovi olingan kundan boshlab 3 ish kuni ichida Mijozning moliyaviy va mulkiy holatini tasdiqlovchi har qanday hujjatlarni Bankka taqdim etish.

9.12. F.I.O, yashash joyi, ish joyi, individual ma'lumotlar, shaxsiy, biografik ma'lumotlar yoki boshqa axborotlar o'zgargan taqdirda, bunday o'zgarishlar sodir bo'lgan kundan boshlab 1 (bir) kun ichida Bankka ushbu o'zgarishlar to'g'risida xabar berish.

9.13. Mijozning moliyaviy holati yomonlashishiga va Mijozning Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi majburiyatlarini bajarmaslik va/yoki lozim darajada bajarmaslik xavfi paydo bo'lishiga olib keladigan hech qanday majburiyat va choralarni o'ziga qabul qilmaslik.

9.14. Ish beruvchiga mehnat shartnomasini bekor qilish to'g'risida ariza berganidan keyin keyingi ish kunidan kechiktirmay, bu haqda Bankka xabar berish.

9.15. Bank, uning xodimlari va vorislari, jalb qilingan autsorsing kompaniyalari tomonidan har qanday axborot manbalaridan foydalangan holda Mijoz tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni, shuningdek Kredit arizasida va Mijoz tomonidan Mikroqarz olish uchun taqdim etilgan hujjatlarda ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish, shu jumladan, ular tomonidan yashash joyiga, ishi joyiga va boshqalarga tashrif buyurish orqali tekshirish imkoniyatini berish.

9.16. Ushbu Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar, neystoykalar bo'yicha va/yoki Mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlarni to'lash muddati kelganda, Mijozning Bankdagi har qanday hisobvarag'idan, shuningdek Mijozning boshqa banklardagi hisobvaraqlaridan, ushbu Shartnomada nazarda tutilgan tartibda mablag'larni aktseptsiz, so'zsiz va chaqirib olinmaydigan hisobdan chiqarish huquqini Bankka taqdim etish.

9.17. Bankning talabiga binoan, Bank ko'rgan barcha xarajatlar va zararlarni, shu jumladan ushbu Shartnoma doirasida taqdim etilgan Mikroqarz (asosiy qarz va boshqa to'lovlar) bo'yicha qarzdorlikni majburiy va/yoki muddatidan oldin undirish choralarni ko'rish bilan bog'liq xarajatlar va zararlarni qoplash;

9.18. Mijoz Bankning roziligisiz Mikroqarz bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini to'liq yoki qisman boshqa shaxsga o'tkazishga haqli emas.

Bank quyidagi huquqlarga ega:

9.19. Kreditlash jarayonida Bank Mijozning moliyaviy holatini tekshirish huquqiga ega. Bunday tekshiruvlarning davriyligi Bank tomonidan belgilanadi;

9.20. Quyidagi hollarda:

- 1) Mijoz tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlarning buzilishi va/yoki bajarilmaganligi va/yoki lozim darajada bajarilmaganligi;
- 2) Mijozning moliyaviy holatining yomonlashishi va/yoki Mijozga nisbatan jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa va/yoki qarzni qoplash ta'minoti uchun berilgan Mijozning mol-mulki xatlangan bo'lsa va/yoki Mijozning pul mablag'lari yoki boshqa mol-mulki bilan operatsiyalar muzlatilgan va/yoki to'xtatib qo'yish holatlari bo'lgan bo'lsa;
- 3) Mijoz tomonidan noto'g'ri axborotlarni taqdim etish faktlarini Bank aniqlashi;
- 4) Tijorat banklarida jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg'in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat qoidalari talablariga muvofiq Mijozni tegishli tekshiruvdan o'tkazish va/yoki Mijoz tomonidan shubhali va/yoki gumonli operatsiyalarni amalga oshirishda Mijozning bank nazoratidan bo'yin tovlashi;
- 5) ushbu Ommaviy ofertadan kelib chiqadigan Mikroqarz bo'yicha asosiy qarzni, foizlarni, vositachilik haqlarini va/yoki boshqa to'lovlarni o'z vaqtida so'ndirmaslik;
- 6) Mikroqarzni qaytarmaslik tavakkalchiligini oshiradigan har qanday omillarning paydo

bo'lishi;

7) Bank Kartasidan ruxsatsiz foydalanishga shubha qilingan taqdirda (unga Mikroqarz birilgan);

8) noto'g'ri yoki yolg'on ma'lumotlar (hujjatlar) taqdim etish yoki Bank tomonidan so'ralgan ma'lumotlarni (ma'lumotlarni) taqdim etishdan bosh tortish, shu jumladan mikroqarzni, Qarz oluvchining moliyaviy holatini monitoring qilish uchun;

9) Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan iqtisodiy normativlar bajarilmaganligi;

Bank quyidagi huquqlarga ega:

– shartnoma bo'yicha Mikroqarzni berishni bir tomonlama tartibda muddatidan oldin to'xtatib qo'yish, bu haqda Qarz oluvchini qonun hujjatlarida belgilangan muddatlarda xabardor qilish va Mikroqarzni muddatidan oldin undirish uchun taqdim etish, shu jumladan garov predmeti (predmetlari) va/yoki uning (ularning) qismi (lar)ga undiruvni qaratish va/yoki Kafildan/Garovga qo'yuvchidan/Sug'urtalovchidan qarz summasini undirish yo'li bilan.

– yozma xabarnoma yuborilgan sana uning Mijozga/Garovga qo'yuvchiga/Kafilga topshirilgan sanasi yoki pochta jo'natmasining sanasi hisoblanadi

– shartnoma bo'yicha yangi summalar va/yoki yangi kreditlar/qarzlarni berishni to'xtatish;

– shartnoma bo'yicha qarzdorlikni muddatidan oldin undirish uchun taqdim etish;

– по своему усмотрению не взимать суммы комиссий и/или неустойки;

– o'zining yagona mutlaq ixtiyoriga ko'ra, Shartnoma bo'yicha undiruv va majburiyatlarni majburiy ijro etish bo'yicha sud tartib-taomillarini boshlash;

– Qarz oluvchining Bankda ochilgan har qanday hisobvarag'idan mablag'larni Shartnoma shartlaridan kelib chiqadigan asosiy qarz, foizlar va/yoki mikroqarz bo'yicha boshqa to'lovlarni so'ndirishga yo'naltirgan holda, ular bo'lmagan taqdirda, boshqa har qanday hisobvaraqlardan, shu jumladan boshqa banklardan, aktseptsiz, shubhasiz hisobdan chiqarish.

9.21. Mijozning hisobvarag'iga pul mablag'larini qaytarish natijasida kelib tushgan pul mablag'lari, Shartnoma bo'yicha Mikroqarzning foydalanilmagan summasini qaytarish sifatida Bank tomonidan mustaqil ravishda asosiy qarzni muddatidan oldin so'ndirish uchun yo'naltiriladi.

9.22. Bank o'z ixtiyoriga ko'ra ushbu Ommaviy ofertada ko'rsatilgan har qanday huquq/talablarni qo'llashi yoki qo'llamasligi mumkin. Ushbu huquqlarni/talablarni qo'llamaslik yoki qisman qo'llash ushbu huquqlardan/talablardan voz kechishni anglatmaydi va ular Shartnomaning amal qilishi muddati davomida istalgan vaqtda qo'llanilishi mumkin.

9.23. Bank Mijoz bilan bog'lanishi va unga aloqa vositalaridan foydalangan holda va kredit arizasida va Mijoz tomonidan Mikroqarzni olish uchun Bankka taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan manzillarga (telefon raqamlariga), shuningdek Mijozdan olingan aloqa ma'lumotlariga ko'ra, shu jumladan telefon aloqasi orqali, telefon raqamiga SMS-xabarnoma yuborish, doimiy ro'yxatdan o'tish/haqiqiy yashash manzili bo'yicha pochta xizmati orqali, elektron pochta yoki boshqa aloqa vositalari orqali, shuningdek doimiy ro'yxatdan o'tish/haqiqiy yashash/ish joyining ko'rsatilgan manzili bo'yicha Mijozning oldiga tashrif buyurish orqali Shartnoma bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlikning mavjudligi va majburiyatlarning bajarilmaganligi to'g'risida ogohlantirishlar va xabarnomalarni yuborish huquqiga ega

Bank quyidagilarga majbur:

9.24. Mijozga Ommaviy oferta va Mikroqarzning individual shartlarida ko'rsatilgan limit doirasida va muddatlarda Mikroqarzdandan foydalanish imkoniyatini berish;

9.25. Mikroqarz bo'yicha qarzdorlikni undirish maqsadida Bank qarzdorlikni so'ndirish zarurligi va Mikroqarz bo'yicha majburiyatlar bajarilmasligining oqibatlari haqida, Mijoz bilan shartnomada kelishilgan har qanday aloqa usullaridan foydalangan holda, qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida Mijozni belgilangan shaklda xabardor qilish. Xabarnomani qo'lga topshirish hamda u haqida telefon vositalari orqali og'zaki eslatmalar

qilish mahalliy vaqt bilan soat 20:00 dan 8:00 gacha yo'1 qo'yilmaydi.

9.26. Ushbu shartnoma bo'yicha muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganda, Bank Mijoz zimmasidagi kredit yuki yanada oshib ketishining oldini olish maqsadida muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelgan sanadan boshlab 7 (yetti) kalendar kuni davomida elektron pochta aloqasidan yoxud MBX vositasidagi shaxsiy kabinetidan foydalanib yoxud Mijoz tomonidan Kredit arizasida taqdim etilgan mobil telefon raqamiga SMS-xabar/PUSH-bildirishnomalar orqali, Mijozga muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik yuzaga kelganligi haqida, so'ndirish jadvali va uni so'ndirish tartibini ilova qilgan holda xabar berishi shart.

9.27. Shartnoma bo'yicha majburiyatlar to'liq bajarilgan taqdirda, Bankka Mijozning tegishli so'rovi kelib tushgan kundan boshlab bir ish kuni ichida, MBX tizimlari orqali yoki Mijozning ixtiyoriga ko'ra, Mijozning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning to'liq bajarilganligini tasdiqlovchi yozma shaklda hujjat taqdim etish.

9.28. Qarz oluvchining tegishli so'rovi Bankda ro'yxatdan o'tgan kundan boshlab besh ish kuni ichida Mijozga Mikroqarz berilganligini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish

10. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

10.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganliklari yoki lozim darajada bajarmaganliklari uchun Shartnoma shartlariga va Amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladilar.

10.2. Tomonlar Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq yoki qisman bajarmaganliklari uchun, agar bajarmaganlik yengib bo'lmas kuch holatlari, ya'ni ushbu sharoitlarda favqulodda va muayyan sharoitlar natijasida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod qilinadilar. Yengib bo'lmas kuch holatlarining amal qilishini Tomonlar vakolatli organlarning hujjatlari bilan tasdiqlashi kerak. Bunday holatlarga, shu jumladan, harbiy harakatlar, ommaviy tartibsizliklar, tabiiy ofatlar, harbiy-siyosiy vaziyatning o'zgarishi, elektr energiyasining uzilishi, ish tashlashlar, davlat hokimiyati va mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlarining qarorlari, ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilgan majburiyatlarning bajarilishini imkonsiz qiladigan qonunlar va boshqa normativ hujjatlarning chiqarilishi kiradi.

10.3. Shu bilan birga, Tomonlar pandemiya koronavirus infeksiyasi (COVID-19) va (yoki) boshqa har qanday epidemiyalar yoki kasalliklarning tarqalishi, shuningdek, pandemiya munosabati bilan joriy qilinadigan cheklovchi choralar (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida karantin e'lon qilinishi) mazkur Shartnoma bo'yicha "yengib bo'lmas kuch holatlari" (fors-major) deb hisoblanishi mumkin emasligini tushunadilar va kelishib oladilar va Tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 333-moddasi 3-qismiga muvofiq uning dispozitivligini hisobga olgan holda yengib bo'lmas kuch holatlari to'g'risidagi qoidalarni qo'llashni istisno qiladilar. Shartnomaning ushbu bandining amal qilishi, hatto davlat organlari tarafidan Tomonlar tarafidan oqilona choralar bilan oldindan ko'ra olmaydigan va/yoki oldini ololmaydigan shartnoma bo'yicha majburiyatlarning lozim darajada bajarilishi uchun cheklovlar qo'yadigan harakatlar yoki qarorlar qabul qilingan taqdirda ham qo'llaniladi.

10.4. Mijoz o'zining barcha mol-mulki bilan Bank oldida Mikroqarzni o'z vaqtida va to'liq qaytarish uchun, u bo'yicha foizlar, vositachilik haqlari va boshqa to'lovlarni qaytarish uchun, shuningdek, Mijozning majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli qarzni undirish bo'yicha sud xarajatlarining qoplanishi uchun javobgar bo'ladi.

10.5. Mikroqarzni va u bo'yicha hisoblangan foizlarni so'ndirish bo'yicha majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaganlik, shuningdek shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik uchun Mikroqarzning individual shartlariga muvofiq penya hisoblanadi. Mijozning Bankda va boshqa tijorat banklarida ochilgan har qanday hisobvarag'idan har qanday hisoblangan penyalarning har qanday summalarini aktseptsiz va so'zsiz tartibda hisobdan chiqarish huquqini Mijoz tan oladi va Bankka beradi.

10.6. Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda, Bank Universal shartnoma va Amaldagi qonunchilikka muvofiq javobgar bo'ladi.

10.7. Bankning nazorati doirasidan tashqarida, Kartadan foydalangan holda sodir etilgan,

ziddiyatli va bahsli vaziyatlarning yuzaga kelishi uchun Bank javobgar bo'lmaydi.

10.8. Texnik nosozliklar (elektr ta'minoti va aloqa tarmoqlarining uzilishi/shikastlanishi, To'lov tizimlarining ishlashidagi texnik nosozliklar) holatida, Mijoz tomonidan hisobvaraqqa pul mablag'larini o'tkazish uchun rekvizitlarni noto'g'ri/ to'liq ko'rsatmagan taqdirda, Bank ushbu Ommaviy oferta shartlarini bajarmaganligi yoki o'z vaqtida bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

10.9. Bank yillik qarz summasining yarmidan ko'p bo'lmagan miqdorda foizlar, vositachilik haqlari, penyalarni hisoblash va undirish huquqiga ega.

11. NIZOLARNI HAL QILISH VA MUHOJATLARGA ISHLOV BERISH TARTIBI

11.1. Ushbu Shartnomani bajarish jarayonida yuzaga keladigan barcha nizolar Tomonlar tarafidan o'zaro maqbul yechimni ishlab chiqish maqsadida dastlabki tartibda ko'rib chiqiladi. Agar Tomonlar kelishuvga erishmagan bo'lsa, ular o'rtasidagi nizo O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida belgilangan tartibda da'vogar joylashgan yerdagi umumiy yurisdiksiya sudida hal etiladi.

11.2. Ushbu shartnomadan kelib chiqadigan tomonlar o'rtasidagi barcha nizolar ushbu Ommaviy ofertada va Universal shartnomada nazarda tutilgan tartibda yoki suddan tashqari/sudgacha tartibda, shu jumladan notarial ijro yozuvini olish yo'li bilan hal qilinadi. Notarial ijro yozuvini olish orqali qarzdorlikni undirishda Mijoz notarial ijro yozuvining haqiqiylikni shubhasiz tan oladi.

11.3. Bank onlayn mikroqarz bo'yicha so'ndirilmagan mablag'larni qaytarishni, barcha hisoblangan foizlar va boshqa qo'shimcha talablarni to'lashni, shuningdek Mijoz tomonidan Bankka yetkazilgan barcha ziyonlar va zararlarni qoplanishini talab qilishga haqlidir.

11.4. Neystoykani to'lash Mijozni unga yuklatilgan majburiyatlarni bajarishdan yoki qoidabuzarliklarni bartaraf etishdan ozod qilmaydi.

11.5. Ushbu Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan Mijoz va Bankning javobgarlik choralari O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq qo'llaniladi.

11.6. Mijozning mikroqarz bo'yicha qarzdorligi yuzasidan sug'urta to'lov Sug'urta tashkiloti tomonidan Bankka to'langan taqdirda, amaldagi qonunchilikka muvofiq Mijozga regress tartibida pul mablag'larini qoplashni talab qilish huquqi sug'urta tashkilotiga o'tadi.

11.7. Ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan yoki u bilan bog'liq bo'lgan barcha nizolar Tomonlarning o'zaro kelishuvi bilan hal qilinadi. Agar tomonlar kelishuvga erishmasa, ular o'rtasidagi nizo Bank joylashgan joydagi vakolatli sudga hal qilinadi.

12. SHARTNOMANI O'ZGARTIRISH VA BEKOR QILISH TARTIBI

12.1. Shartnoma Mijozning tashabbusi bilan istalgan vaqtda, Bank bilan yakuniy hisob-kitoblarni amalga oshirish va Bankka Shartnomani bekor qilish uchun Ariza taqdim etilgan vaqtda Qarzdorlikni to'liq to'lash sharti bilan bekor qilinishi mumkin.

12.2. Agar Mijoz Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmagan bo'lsa, Shartnoma Bank tashabbusi bilan bir tomonlama suddan tashqari tartibda bekor qilinishi mumkin, bunda Shartnoma Bank tomonidan Mijozga bunday bekor qilish to'g'risida xabarnoma yuborilgan kundan boshlab 3 (uch) kundan keyin bekor qilingan hisoblanadi.

12.3. Shartnomani bekor qilish, Shartnomaning amal qilish davrida yuzaga kelgan Mijozning Shartnoma bo'yicha Bank oldidagi Qarzdorligini so'ndirish, shu jumladan, Bankning vositachilik haqini to'lash bo'yicha Qarzdorligini so'ndirish majburiyatini bekor qilishga olib kelmaydi.

13. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI

13.1. Shartnoma Mijoz tomonidan Mikroqarzni individual shartlarini aktseptlagan paytdan boshlab kuchga kiradi.

13.2. Shartnoma Mikroqarz bo'yicha kreditlash davrida amal qiladi va Mijoz u bo'yicha majburiyatlarini to'liq bajargandan so'ng bekor qilinadi.

14. YAKUNIY QOIDALAR

14.1. Mazkur Ommaviy ofertada nazarda tutilmagan shartlar O'zbekiston Respublikasining

amaldagi qonunchiligiga muvofiq tartibga solinadi.

14.2. Mijoz barcha aloqa vositalaridan foydalangan holda to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni amalga oshirish orqali Bank xizmatlarini ilgari surish bilan bog'liq reklama materiallarini Bankdan olishga roziligini bildiradi, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan: pochta orqali yuborish, SMS- yuborish, ovozli yuborish, elektron xatlarni yuborish va boshqalar.

14.3. Nizolar yuzaga kelgan taqdirda, bank yozuvlari ushbu Ommaviy oferta/Shartnoma bo'yicha ikkala tomonning majburiyatlarining ustunlik qiluvchi isboti bo'ladi.

14.4. Qarz oluvchi vafot etgan taqdirda, uning barcha huquq va majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda uning merosxo'rlariga o'tadi.

14.5. Shartnoma Mijoz tomonidan aktseptlagan paytda amal qiladigan Ommaviy oferta shartlari asosida tuzilgan hisoblanadi va Bank va Mijoz o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

14.6. Ommaviy oferta MBX tizimida/Bank saytida e'lon qilingan paytdan boshlab va uning muddati davomida haqiqiy hisoblanadi.

DIQQATLI BO'LING! Agar kimdir Sizga va Sizning yaqinlaringizga kredit (qarz) olishda o'z yordamini taklif qilsa, bilingki, «Tenge Bank» ATB vositachilar xizmatidan foydalanmasdan Mijozlar bilan to'g'ridan-to'g'ri ishlaydi.

15. BANKNING MANZILI VA REKVIZITLARI

«Tenge Bank» ATB

Manzil: Toshkent sh., Yashnobod tumani,

Parkent ko'chasi, 66-uy

MFO: 01176, STIR: 207297973

Aloqa-markazi raqami: 1245

Ushbu bilan, mazkur rozilikni aktseptlagan holda, Men o'z manfaatimda, erkin harakat qilaman va o'z irodamni ifoda etib, "Tenge Bank" ATBga (keyingi o'rinlarda – "Bank") va Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs bilan) va Bank o'rtasida tuzilgan (tuzilishi mumkin bo'lgan) har qanday bitim/operatsiyalarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki ularga texnik xizmat ko'rsatishga aloqasi bo'lgan va/yoki aloqasi bo'lishi mumkin bo'lgan uchinchi shaxslarga shaxsga doir ma'lumotlarni¹ yig'ish, yozish, ishlov berish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, o'zgartirish, to'ldirish, aniqlashtirish (yangilash yoki o'zgartirish), olish, foydalanish, uzatish (berish, kirish), egasizlantirish, blokirovka qilish, olib tashlash, yo'q qilish huquqini, shu jumladan, davlat ma'lumotlar bazalaridan olingan fotografik tasvir va video tasvirlardan va, Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi Qonunida nazarda tutilgan harakatlarni avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki foydalanmasdan amalga oshirish yo'li bilan, Bank topshirig'i bo'yicha harakat qiluvchi uchinchi shaxs ixtiyorida bo'lgan shaxsga doir boshqa ma'lumotlardan foydalanish, bank xizmatlarini ko'rsatish uchun men bilan Shartnomalar tuzish va tuzilgan holda keyingi qo'llab-quvvatlash (ijro etish), mikroqarz/kredit² berish to'g'risidagi Shartnoma (keyingi o'rinlarda "Shartnoma" deb ataladi) tuzish va "Tenge Bank" ATBning boshqa bank xizmatlarini olish imkoniyatini ko'rib chiqish maqsadida, shuningdek, Bankda mikroqarz/kredit olish uchun arizani ko'rib chiqish natijalari to'g'risida, Bank va uning sheriklarining boshqa mahsulotlari va xizmatlari to'g'risida tegishli ma'lumotlarni aloqa vositalaridan foydalangan holda (shu jumladan xabarlarini yuborish), Bankka taqdim etilgan aloqa axborotlari bo'yicha yuborish orqali Qarz oluvchiga xabardor qilish uchun, shuningdek Bankning axborot bazalarini to'ldirish uchun mening barcha shaxsga doir ma'lumotlarimdan foydalanishga o'z zimning so'zsiz, aniq, xabardor qilingan va ongli roziligimni beraman va shuningdek quyidagilarga rozilik beraman:

- BDMAB/SHJPX/DSQ tizimida va telefon aloqasining mobil operatorlarida shaxsga doir axborotlarni olish (shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda);
- Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatish (operatsiyalarni o'tkazish, bitimlar tuzish, harakatlarni bajarish) bilan bog'liq ma'lumotlarni olish: shartnomalar (kelishuvlar) matnlari, ularga qo'shimcha kelishuvlar, ariza va roziliklar, yozishmalar, operatsiyalarni o'tkazish to'g'risidagi ko'rsatmalar (to'lov, kassa va boshqa hujjatlar), huquqni tasdiqlovchi hujjatlar, to'lov kartalari va bank hisobvaraqlarining raqamlari va hokazo;
- Bank tomonidan men haqimda mavjud bo'lgan kredit bo'yicha barcha axborotlar va ma'lumotlarni meni identifikatsiyalash uchun zarur bo'lgan hajmda, tartibda va shartlarda taqdim etish/olish, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining NIKI/KADR (kredit axborotining davlat reyestri)da mening kreditga layoqatligimni tegishli baholashni o'tkazish, kredit byurolari, garov reyestri, shuningdek boshqa davlat va nodavlat idoralar va tashkilotlarga o'zim haqimda kredit axborotlarini/kredit tarixini olish uchun;
- kredit byurosidan kredit hisobotini, shu jumladan kelajakda kelib tushadigan ma'lumotlarni berish;
- "Garov reestri" DUKga yozuvlarni kiritish/o'zgartirish/chiqarib tashlash (shu jumladan, taqiqni tekshirish, taqiqni belgilash va uni bekor qilish);
- Mol-mulk (mulkiy holati) to'g'risida ma'lumot olish: majburiyatlar bo'yicha ta'minot hisoblanuvchi Mijozning mol-mulki va/yoki uchinchi shaxslarning mol-mulki to'g'risidagi ma'lumotlar, shuningdek Mijozning boshqa (har qanday) mol-mulki, bunday (har qanday) mol-mulkning har qanday formatdagi tasviri (fotosurati/videosi) va hokazo, mol-mulki bo'yicha huquqlarning mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar (xatlanganligi); identifikatsiya ma'lumotlari, ro'yxatga olish, huquqlarning mavjudligi (yo'qligi) to'g'risidagi ma'lumotlar; mol-mulkning umumiy xususiyatlari; qiymati; mol-mulkning manzili (joylashgan joyi), davlat ro'yxatidan o'tkazish ma'lumotlari va boshqa ma'lumotlar);
- men haqimda kredit axborotlarini olish uchun boshqa davlat va nodavlat idoralariga va tashkilotlariga axborot berish/olish;
- Mijozning to'lovga layoqatligini baholash uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni olish: pensiya badallari, rasmiy, o'zini-o'zi deklaratsiya qilgan va boshqa daromadlar va xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlar va boshqalar; bank/shaxsiy/balans hisobvaraqlarining mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar (hisobvaraqlarning, maxsus karta hisobvaraqlarining raqamlari, turi, joylashtirish muddati, summasi, omonat shartlari va boshqa ma'lumotlar); kreditlar (qarzlar), bank hisobvaraqlari (shu jumladan maxsus karta hisobvaraqlari), pul mablag'lari va qimmatli qog'ozlarning mavjudligi/yo'qligi to'g'risidagi ma'lumotlar, shu jumladan ishonchli boshqarish va ishonchli saqlash (shartnomalar ma'lumotlari, shu jumladan hisobvaraqlar, maxsus karta hisobvaraqlari raqamlari, bank kartalarining raqamlari, bank kartalaridagi kod axborotlari, kredit tarixining

¹ Shaxsga doir ma'lumotlar – elektron, qog'oz va/yoki boshqa moddiy tashuvchilarda qayd etilgan Mijozga tegishli har qanday ma'lumot.

² Ushbu Rozilikdagi kredit deganda quyidagi kredit turlaridan biri tushuniladi: "Mikroqarz", "Onlayn mikroqarz", "Avtokredit" va boshqalar. Ushbu Rozilikni imzolagan potentsial Qarz oluvchi olmoqchi bo'lgan kredit mahsuloti turining aniq nomi Qarz oluvchi tomonidan imzolangan Individual kreditlash shartlarida ko'rsatiladi.

kodlari, sotib olingan ko'chmas mulk ob'yektlarining manzillari, kredit (qarz) summasi va valyutasi, kreditlash maqsadi, kreditlash shartlari, garov to'g'risidagi ma'lumotlar, hisobvaraqlar bo'yicha qoldiqlari va harakat summalari, bank kartalarining turi, limitlar va boshqa ma'lumotlar), to'langan soliqlar summasi va soliqlar bo'yicha qarzдорliklar to'g'risidagi ma'lumotlar;

- "GENESIS INNOVATION" MChJdan/ga axborot olish/uzatish;
- oilaviy / ijtimoiy holat haqida ma'lumot olish;
- Bankdan har qanday mahsulot va xizmatlarni olish vaqtida men ko'rsatgan aloqa ma'lumotlaridan foydalangan holda, majburiyatlarni bajarish muddati va/yoki kredit mahsulotlari bo'yicha muddati o'tgan qarzдорliklarning mavjudligi to'g'risida axborot olish;
- xizmatlar ko'rsatishning lozim darajadagi sifati uchun va uni yaxshilash, taqdim etilayotgan xizmatlarni personallashtirish, shu jumladan masofadan turib xizmat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan axborotni olish;
- muddati o'tgan qarzдорligimni uchinchi shaxslar bilan qaytarishga qaratilgan o'zaro munosabatni amalga oshirish (Shartnoma tuzilgan taqdirda amal qiladi);
- o'zaro aloqaning quyidagi usullaridan foydalanish: aloqa tarmoqlari orqali va "Internet" axborot-telekommunikatsiya tarmog'idan foydalangan holda uzatiladigan telefon muzokaralari, pochta jo'natmalari, SMS-xabarnomalari, matnli, ovozi va boshqa xabarlar.
- men taqdim etgan ro'yxatdan o'tgan joy, haqiqiy yashash joyi manzili va ish joyi manzili bo'yicha Bank tomonidan yozma ravishdagi murojaatlarini va so'rovlarni yuborishi uchun;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq Bankka zarur bo'lgan, shu jumladan anketani to'ldirish, dos'ye (mijoz/shaxsiy ish)ni shakllantirish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni olish (shu jumladan, Mijozning yuridik shaxslar kapitalidagi ishtiroki to'g'risidagi axborotlar – ishtirok etish ulushi, aksiyalar soni (ulushi); egallab turgan lavozimlari, shuningdek bunday ma'lumotlarning o'zgarishi va/yoki qo'shilishi to'g'risidagi axborotlar; vakili Mijoz bo'lgan yuridik shaxslar ro'yxati), Bankning ma'lumotlar bazasi operatorlari, Bank kontragentlari, uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabati uchun;
- yuqorida ko'rsatilgan ma'lumotlarga kiritilgan o'zgartirishlar va (yoki) qo'shimchalar to'g'risida axborot olish.

Bundan tashqari, ushbu bilan Men quyidagilarga o'z roziligimni beraman:

- Bank bilan tuzilgan shartnoma/kelishuv (keyingi o'rinlarda "sherik" deb ataladi) asosida Bankka xizmatlar ko'rsatishga vakolatli bo'lgan Bank va uning sherigi tomonidan Mijozning shaxsga doir, biometrik va/yoki boshqa ma'lumotlarini (keyingi o'rinlarda "ma'lumotlar" deb ataladi) to'plash, ishlov berish, shu jumladan kredit byurolariga ma'lumotlarni uzatishga;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxsga Mijozning ma'lumotlarini cheklovlarisiz Moliya institutlariga o'tkazishga;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan Mijoz to'g'risidagi mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan axborotlarni moliya institutlariga taqdim etish, shuningdek moliya institutlariga yuqorida ko'rsatilgan axborotlarni Bankka taqdim etishga;
- moliyaviy xizmatlar ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan Mijoz to'g'risidagi mavjud bo'lgan va kelajakda kelib tushadigan axborotlarni Bankka taqdim etishga;
- moliya institutlari tomonidan Bankka yagona sug'urta ma'lumotlar bazasidan Mijoz to'g'risidagi axborotni yagona sug'urta ma'lumotlar bazasi Mijozni sifatida taqdim etishga;
- davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalari tomonidan Mijoz to'g'risidagi axborotlarni Bankka, moliya institutlariga, ma'lumotlar bazasi operatorlariga, shuningdek moliya institutlari tomonidan - barcha davlat va nodavlat ma'lumotlar bazalaridan to'g'ridan-to'g'ri yoki uchinchi shaxslar orqali taqdim etishga;
- O'zbekiston Respublikasi Hukumatining yoki boshqa organning qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq davlat xizmatlarini ko'rsatish faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs tomonidan Mijoz to'g'risida mavjud bo'lgan va kelgusida kelib tushadigan axborotlarni kredit byurolariga va kredit byurolari orqali Bankka taqdim etishga.

Ushbu bilan Men o'z roziligimni bildiraman va ro'yxati ushbu Rozilikning yuqorida ko'rsatilgan bandlarida keltirilgan ma'lumotlarni (shaxsga doir ma'lumotlarni), shu jumladan Bank bilan maxfiylik va axborotlarni oshkor qilmaslik to'g'risida kelishuv (shartnoma) tuzgan uchinchi tomonga, ularga ishlov berish maqsadida, shu jumladan Bank topshirig'i bo'yicha harakat qiluvchi uchinchi tomon tarafidan bunday ishlov berish, shu jumladan quyidagilar uchun ma'lumotlarni (shaxsga doir ma'lumotlarni) to'liq yoki qisman taqdim etish vakolatini Bankka beraman:

- Bank men bilan Shartnoma tuzish imkoniyatini ko'rib chiqayotganda, kreditga layoqatlilik, to'lovga qobiliyatligi alomatlarini baholash va Bankka bunday baholash natijalarini taqdim etish uchun;
- Bankka men tomonimdan taqdim etilgan ro'yxatdan o'tish/haqiqiy yashash manzili bo'yicha men bilan kelgusida (telefon orqali (shahar/mobil) bog'lanishni amalga oshirish uchun, mikroqarz/ kredit olish uchun arizamni Bank tomonidan ko'rib chiqish natijalari to'g'risida axborot berish uchun, men tomonimdan taqdim etilgan axborotlarni (shu jumladan shaxsga doir ma'lumotlarni) aniqlashtirish uchun;
- Bank dasturiy ta'minotini yaxshilashni tashkil etish uchun;
- jismoniy shaxslarning hujjatlarini saqlash, mazkur hujjatlarning elektron nusxalarini yaratish va saqlash bo'yicha Bank tomonidan xizmatlar ko'rsatish uchun;
- Qarz oluvchi bilan, har qanday uchinchi shaxslar bilan muddati o'tgan qarzдорlikni qaytarishga yo'naltirilgan o'zaro munosabatlarni amalga oshirish uchun (shartnoma tuzilgan taqdirda qo'llaniladi);

Men Bankka taqdim etadigan barcha ma'lumotlar to'liq va ishonchli ekanligini tasdiqlayman.

Men quyidagi harakatlarni amalga oshirmaslik majburiyatini olaman:

- har qanday usulda, www.tengebank.uz sayti orqali yoki Bankning boshqa resurslari (keyingi o'rinlarda “Sayt” deb ataladi) orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini buzgan holda materiallarni (axborotni) joylashtirish, tarqatish, saqlash, yuklash va/yoki yo'q qilish;
- bila turib noto'g'ri axborotlarni joylashtirish, begona shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlaridan (uchinchi shaxslarning, shuningdek o'ylab chiqarilgan shaxslarning shaxsga doir ma'lumotlari) foydalangan holda ro'yxatdan o'tish;
- foydalanish huquqiga ega bo'lmagan ro'yxatdan o'tish manzili/ haqiqiy yashash manzili, telefon (lar) ning raqami (lari), elektron pochta manzili (lari) to'g'risidagi ma'lumotlarni joylashtirish.
- Men Sayt va mobil ilovaning axborot xavfsizligini buzmaslik, Bank tomonidan nazarda tutilgan ro'yxatdan o'tish tartib-taomillarini buzmaslik majburiyatini olaman.
- Bank, taqdim etilgan shaxsga doir axborotlardan ruxsatsiz foydalanishning oldini olish uchun barcha mumkin bo'lgan sa'y-harakatlarni va qonunchilikda nazarda tutilgan choralarni ko'rayotgani to'g'risida menga xabar berildi. Men, Bankning nazorati ostida bo'lmagan dasturiy ta'minot, serverlar yoki kompyuter tarmoqlarida texnik nosozliklar tufayli yuzaga kelgan foydalanuvchilarning shaxsga doir axborotlaridan maqsadsiz foydalanilganlik uchun Bank javobgar emasligi haqida xabardor qilinganman va bunga rozilik bildiraman.
- Men, Bank tomonidan mening shaxsga doir ma'lumotlarimdan foydalanishni to'xtatish uchun, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq nazarda tutilgan shaxsga doir ma'lumotlarni saqlashdan tashqari, Rozilikni qaytarib olishni yozma ravishda rasmiylashtirish uchun Bankka murojaat qilishim kerakligini tushunaman va qabul qilaman.
- Agar bir yil ichida kredit shartnomalari, qarz shartnomalari, shu jumladan Bank krediti to'lovlari bo'yicha menda mavjud bo'lgan barcha majburiyatlarim bo'yicha to'lovlarning umumiy miqdori mening yillik daromadimning 50 foizidan oshsa, men uchun mikroqarz/kredit berish shartnomasi bo'yicha majburiyatlarni bajarmaslik va Bank menga nisbatan jarimalar qo'llash tavakkalchiligi borligi to'g'risida Bank tomonidan xabardor qilinganligimni tasdiqlayman.

1. Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash, unga ishlov berish va ulardan foydalanish (shu jumladan, qog'ozda va (yoki) elektron formatda Bank/operatorlarning massivlari va (yoki) ma'lumotlar bazalarida to'plash, ishlov berish va saqlash), shu jumladan quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Bank tomonidan ko'rsatilishi mumkin bo'lgan bank va/yoki boshqa xizmatlarni olish uchun Mijozning arizasini (uning vakili mijoz bo'lgan shaxsning arizasini) ko'rib chiqish uchun;
- tegishli shartnomalar (kelishuvlar) shartlari bo'yicha, operatsiyalar/to'lovlarni bajarish, noto'g'ri o'tkazilgan summalarni qaytarish, summalarni qidirish, bank kartalari hisobvaraqlaridan qarzdorlikni avtomatik ravishda hisobdan chiqarish va boshqalar Mijozga (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxsga) Bank tomonidan ko'rsatiladigan Mijozga (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxsga) bank va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko'rsatish uchun;
- Bank bilan bitimlar tuzish, Bank tomonidan operatsiyalarni amalga oshirish, Mijoz tomonidan ko'rsatilgan harakatlarni (yo'riqnomalarni) Bank tomonidan bajarilishi imkoniyatini ko'rib chiqish uchun;
- pul o'tkazmalarini amalga oshirish uchun Mijozning kontragentiga (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxsning kontragentiga) va Mijozning (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) topshirig'ini o'tkazish/marshrutlash/protsessingi o'tadigan barcha banklarga/protsessing tashkilotlariga/Xalqaro To'lov Tizimlariga (to'lov tizimlariga)/ to'lov (mobil) xizmatlarini etkazib beruvchilariga (Apple Pay, Samsung Pay, Garming Pay va boshqalar) Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin;
- topshiriqlar, buyruqlar, farmoyishlar, buyurtmalar va boshqalar doirasida bitimlar/operatsiyalarni tuzish/bajarish/ijro etish uchun, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining uyushgan/uyushmagan qimmatli qog'ozlar bozorida, xalqaro uyushgan/uyushmagan xorijiy bozorda hisob/kliring tashkilotlariga, depozitariylarga, kastodianlarga, fond birjalariga, xalqaro hisob-kitob (to'lov) tizimlariga, Mijozning kontragentlariga (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxsning kontragentlariga) va bitimlarni amalga oshirish/operatsiyalarni bajarish uchun topshiriq (lar) va/yoki buyruq (lar)ni o'tkazish/marshrutlash /protsessingi o'tadigan barcha banklarga/protsessing tashkilotlariga Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari Bank tomonidan taqdim etilishi mumkin;
- Bankni/uchinchi shaxsni ichki nazorat qilish va hisobga olish, shuningdek Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank tomonidan tegishli shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha o'z majburiyatlarining lozim darajada bajarilishini nazorat qilish va tasdiqlash uchun;
- Bankning (moliyaviy monitoring Mijozni sifatida)/Mijozning uchinchi shaxsi tomonidan ishbilarmonlik munosabatlarini o'rnatishda va Mijozning O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq operatsiyalarini amalga oshirishda, valyuta nazorati funksiyalarini bajarishda lozim darajada tekshirish bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va tegishli shartnomalar shartlariga muvofiq ruxsat etilmagan operatsiyalar tavakkalchiligini minimallashtirish maqsadida Bank tomonidan Mijozni identifikatsiya qilish/autentifikatsiya qilish/avtorizatsiya qilish bilan bog'liq va Mijoz/Bank tomonidan taqdim etilgan/foydalanilayotgan ma'lumotlar/axborotlar/algoritmlar/kodlar/ramzlar/identifikatorlar/raqamlar va boshqalarning ishonchliligini (to'g'riligini) tekshirish (shu jumladan, Bankda va Bank uchun mavjud bo'lgan boshqa manbalardan shaxsga doir ma'lumotlar va boshqa ma'lumotlarni olish/solishtirish orqali) chora-tadbirlarini (majburiyatlarni) bajarish uchun;
- Bank tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchilida belgilangan muddatlar davomida buxgalteriya hisobida foydalaniladigan birlamchi hujjatlarni saqlash va hisobga olish bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa normativ-huquqiy hujjatlari tomonidan belgilangan hujjatlar, materiallar, dos`yelarni Bank tomonidan saqlash bo'yicha majburiyatni bajarish uchun;
 - Bank va Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) o'rtasida Mijozning va/yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq bunday huquqqa ega bo'lgan uchinchi shaxslarning so'rovi bo'yicha tegishli shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha operatsiyalar amalga oshirilishini tasdiqlash uchun;
 - Bank huquqlarini sud va suddan tashqari himoya qilish uchun: (i) mavjud shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda; (ii) nizoli vaziyatlar, shu jumladan uchinchi shaxslar bilan nizoli vaziyatlar yuzaga kelgan taqdirda;
 - tegishli shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha majburiyatlar buzilgan taqdirda, bu shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha qarzdorliklarni undirish, shuningdek garov mol-mulkini sotish bilan bog'liq savdolarni o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish topshirig'i yuklatiladigan agentliklar va/yoki boshqa ixtisoslashtirilgan shaxslar yoki Bank xodimlari/vakillari bilan Bankning ish maqsadlari uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga rioya etgan holda ommaviy (oshkor qilingan) ma'lumotlar va axborotlarni ommaviy axborot vositalarida joylashtirish uchun;
 - bir qarz oluvchiga doir tavakkalchilikning eng ko'p miqdorini hisoblash va prudentsial va boshqa normativlar va limitlarga rioya qilish va "shaffoflik"ni tekshirish uchun;
 - Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan (tuzilishi mumkin bo'lgan) har qanday bitim/operatsiyalarni tuzish va/yoki bajarish va/yoki ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan va/yoki unga bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan Bankning uchinchi shaxslar bilan o'zaro munosabati (uchinchi shaxslarning Bank bilan, uchinchi shaxslarning bir-biri bilan o'zaro munosabati uchun) uchun;
 - vakolatli organlarga/dan, auditorlik, baholash va boshqa vakolatli tashkilotlarga/dan, kredit byurolariga/dan, Bankning aksiyadorlariga/dan va/yoki affillangan shaxslariga/dan, ma'lumotlar bazasi operatorlariga/dan, Bank kontragentlariga/dan hisobot va/yoki axborotlarni Bank tomonidan taqdim etish/olish uchun;
 - matematik, statistik va xulq-atvor modellarini, axborot tizimlarini, ma'lumotlar bazalarini (shu jumladan tahlil qilish, modellashtirish, prognozlash) ishlab chiqish, saqlash va qo'llash uchun; tavakkalchiliklarni va/yoki boshqa sug'urta turlarini sug'urtalashni amalga oshirish uchun, agar bunday sug'urtalash «GENESIS INNOVATION» MChJga axborot berish uchun tegishli shartnomalar (kelishuvlar), Bank mahsulotlari shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa;
 - Bankning xavfsizlik rejimini ta'minlash uchun Bankning ichki hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda va cheklovlarni hisobga olgan holda, identifikatsiya qilish/autentifikatsiya qilish/avtorizatsiya qilish va Bank yoki xizmat ko'rsatuvchi yetkazib beruvchi uchinchi tomonlarning xonalariga/binolariga/ofislariga/axborot tizimlariga kirish huquqini berish maqsadida;
 - Axborot almashish uchun, shu jumladan Mijozning (va/yoki uchinchi shaxslarning) murojaatlari, shikoyatlar, takliflar, tavsiyalar, da'volar, topshiriqlar va boshqalar bo'yicha hisobotlarni ko'rib chiqish va/yoki taqdim etish, xat-xabarlarini (pochta xabarlarini) Mijoz (vakili Mijoz bo'lgan shaxsning manziliga) manziliga o'tkazish (qabul qilish) uchun kuryer xizmatlari, kuryer xizmati, ekspress pochta va boshqalar orqali yuborish (yetkazib berish)/qabul qilish.;
 - Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan shartnomalar (kelishuvlar) bo'yicha Bank tomonidan talab qilish huquqidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish uchun, agar bunday kechish Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnomalar (kelishuvlar) shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa (shuningdek, Bank tomonidan sekyuritizatsiya bitim (lari)ni tuzish va/yoki amalga oshirish maqsadida);
 - marketing maqsadlari uchun, aksiyalarni o'tkazish, Mijozga har qanday axborot materiallarini, shu jumladan Bank mahsulotlari va/yoki xizmatlari to'g'risida, shuningdek telefon, faksimil aloqa, boshqa aloqa turlari orqali, shuningdek ochiq aloqa kanallari (shu jumladan SMS, e-mail, faks, ijtimoiy tarmoqlar, Push-bildirishnomalar va boshqalar) orqali boshqa xabarnomalarni taqdim etish (jo'natish) uchun;
 - marketing va reklama aksiyalarini ishlab chiqish, Mijozning (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxsning) Bank bilan munosabatlari tarixini hisobga olgan holda keyingi bank xizmatlarini ko'rsatish, Bank yoki Bank sherigi tomonidan taqdim etiladigan servislarni personallashtirish uchun;
 - Bank va boshqa xizmatlar doirasida Mijozga servis ko'rsatuvchi uchinchi shaxslar (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) bilan Bankning o'zaro munosabati uchun;
 - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan (belgilanishi mumkin bo'lgan) yoki Mijoz va Bank o'rtasida tuziladigan shartnomalar hamda Mijoz tomonidan Bankka va/yoki Bank tomonidan Mijozga yuboriladigan boshqa hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa maqsadlar uchun.
2. Ushbu bilan, Men quyidagilarni tasdiqlayman, ya'ni:
- agar O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida boshqa talablar belgilanmagan bo'lsa, Bank tomonidan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini bank sirini tashkil etuvchi axborotni himoya qilish rejimiga o'xshash rejimda himoya qilish to'g'risida, Bank tomonidan xabardor qilindim;
 - shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ishlov berishga berilgan ushbu yozma rozilik, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmasa yoki Bank oldida bajarilmagan majburiyat mavjud bo'lsa, qaytarib olinmaydi;
 - Bank O'zbekiston Respublikasi qonunlarida belgilangan hollarda, shu jumladan boshqa banklarda va/yoki tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasi qonunlarida taqiqlanmagan qarzdorlikni undirish bo'yicha har qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida Mijozning roziligisiz shaxsga doir ma'lumotlarni to'plash va ishlov berish huquqiga ega;

- Bank Mijozdan va har qanday uchinchi shaxslardan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash (olish) va ishlov berish, shuningdek Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablari va xalqaro huquq talablarini (xalqaro shartnomalar talablari) hisobga olgan holda shaxsga doir ma'lumotlarni ommaviy manbalarda tarqatish huquqiga ega;
 - agar Mijoz (uning vakili Mijoz bo'lgan shaxs) va Bank o'rtasida tuzilgan tegishli shartnoma (lar)da Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini (shu jumladan transchegaraviy uzatishni) ochiq aloqa kanallari orqali Bank tomonidan taqdim etilishi ko'rsatilgan bo'lsa/taqdim etilishi ko'rsatilishi belgilansa, Mijoz uchinchi shaxslar tomonidan ruxsatsiz ma'lumot olish tavakkalchulugini tan oladi va bu tavakkalchulukni o'z zimmasiga oladi;
 - ushbu rozilik Bankka, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda, Mijozning shaxsga doir ma'lumotlari bilan har qanday harakatni (operatsiyani) yoki bunday harakatlar (operatsiyalar) majmuini, shu jumladan avtomatlashtirish vositalaridan foydalangan holda yoki ulardan foydalanmasdan amalga oshiriladigan, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda, to'plash, ishlov berish, yozib olish, nusxa olish, zaxiralagan holda husha olish, saqlash, skrining, tizimlashtirish, to'plash, Bank ichida va tashqarisida saqlash (xavfsizlik va maxfiylik talablariga rioya qilgan holda), aniqlashtirish (o'zgartirish, yangilash), chiqarish, foydalanish, uzatish (tarqatish, kirish huquqini berish, shu jumladan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlariga ishlov berish huquqi bilan uchinchi shaxslarga berish), egasizlantirish, blokirovka qilish, chiqarib tashlash, yo'q qilish, shu jumladan ushbu harakatlarni Bankning topshirig'iga ko'ra uchinchi shaxs tomonidan amalga oshirilishi, agar bu O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga zid bo'lmasa, amalga oshirish huquqini beradi;
 - ushbu rozilik Bank tomonidan, shu jumladan Mijoz va/yoki vakili Mijoz bo'lgan yuridik shaxs tomonidan va/yoki Mijoz birinchi rahbar, bosh buxgalter aktsiyador/ishtirokchi va boshqalar bo'lgan yuridik shaxs tomonidan Bankda har qanday mahsulot, bank va/yoki boshqa xizmatlarni olishda, bunday yuridik shaxs (kontragent sifatida) Bank bilan bitimlar tuzayotgan vaqtda foydalanilishi mumkin;
 - Bank tomonidan uchinchi shaxslardan qabul qilinganligi va/yoki Bank tomonidan Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga uzatganligi to'g'risida Mijozni xabardor qilish talab qilinmaydi, bunday shaxsga doir ma'lumotlar Bank tomonidan ogohlantirilmasdan to'planishi, ishlov berilishi, uzatilishi mumkin;
 - ushbu rozilik, Mijozning shaxsga doir ma'lumotlarini to'plash va ishlov berishga rozilik Mijoz tomonidan berilganligini tasdiqlovchi dalil sifatida uchinchi shaxslarga berilishi mumkin.
3. Mazkur rozilik O'zbekiston Respublikasi qonunchilik talablariga zid bo'lmagan har qanday tarzda berilishi (uning berilishi tasdiqlanishi) mumkin, shu jumladan, lekin ular bilan cheklanmagan holda:
- yozma ravishda qog'ozga;
 - elektron-raqamli imzo bilan imzolangan elektron hujjat shaklida;
 - Bank tomonidan belgilanadigan, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan himoya harakatlarining elementlarini qo'llash bilan, boshqa har qanday usulda (telefon yoki boshqa kommunikatsiya vositasi orqali, Internet-resurslarning maxsus belgilangan maydonlariga tegishli belgilar qo'yish orqali, axborot tizimlarida, apparat-dasturiy komplekslarida, dasturiy ta'minotda yoki servis dasturiy mahsulotida rozilik berishni ifodalovchi harakatlar sifatida ko'rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali (masalan, foydalanishni davom ettirish)). Himoya harakatlarining bunday elementlari sifatida muhrlar, algoritmlar, kodlar (raqamli, harfli, belgilarni qo'llash bilan va kombinatsiyalangan), identifikator so'zlar yoki identifikatsiya kodlari, shifrlash, biometrik ma'lumotlar yoki O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'lmagan boshqa himoya usullari bo'lishi mumkin.
- Men Bankdan, shuningdek ularning sheriklaridan ma'lumot va reklama xabarlarini olish maqsadida, ko'rsatilgan shaxsga doir ma'lumotlarga ishlov berishga rozilik beraman.